

### INGLIZ TILIDA MARK EDWARD REESE TOMONIDAN O'GIRILGAN BYGONE DAYS-O'TKAN KUNLAR ASARI TARJIMASIDA QON-QARINDOSHLIK KONSEPTI SUBORDINATORLARINING LINGUOKULTUROLOGIK TADQIQI

*Uliqova Mavludaxon,  
O'qituvchi,  
Andijon davlat chet tillari instituti  
Andijon, O'zbekiston  
Uliqova -1990@gmail.com*

**Kalit so'zlar:** til va madaniyat, bilimlar va ko'nikmalar, semantik va kommunikativ tarjima...

Tarjima bu til va madaniyat o'rtasidagi ko'prikdir. Turli tillarda so'zlashuvchilar o'rtasida muloqotni o'rnatish uchun tarjima muhim vosita hisoblanadi. Chunki, biz aynan tarjima orqali boshqa xalqlarning madaniyati, tarixi, adabiyoti va ilmiy izlanishlari haqida ma'lumotga ega bo'la olamiz. Tarjima xalqlar o'rtasida tushunish va hurmatni rivojlantirishga yordam beradi. Bu madaniyatlararo almashinuvni rag'batlantiradi va global miqyosda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Shuni aytish kerakki, tarjima bu o'zgaruvchan va doimiy rivojlanayotgan sohadir. Chunki, zamonaviy texnologiyalar va globalizatsiya tufayli tarjima sohasi tez sur'atlar bilan o'zgarib bormoqda. Mashina tarjimasining paydo bo'lishi va tarjima xizmatlarining globallashuvi tarjima amaliyotini yangi bosqichga olib chiqdi.

Tarjima sohasi doimo yangi til va madaniyatlarni o'z ichiga oladi va tarjimonlar o'z bilimlarini va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab turishlariga manba sifatida qurol bo'la oladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tarjima nazariyasi haqida gap ketganda, Isroillik tilshunos va mantiqshunos Yakov Bar-Hillel[1.6] ning nazariyalari haqida to'htalmaslikni ilojisi yo'q, chunki u mashina tarjimasiga katta hissa qo'shgan olimlardan biri bo'lib, tarjima jarayonini matematik jihatdan tahlil qilishga harakat qilgan va tarjima nazariyasiga o'ziga xos yondashuvni taklif qilgan. Olimning fikricha, tarjima imkonsizdir, chunki tilning tuzilishi, ma'nosi bir-biriga bog'liq va boshqa tilga to'liq o'tkazilishi mumkin emas deb fikrlar keltirgan bo'lsa Amerikalik tarjimashunos Eugene Nida o'zining "dinamik ekvivalentlik" nazariyasi bilan mashhurdir. Uning fikricha, tarjimada asl matnning ma'nosini saqlab qolish bilan birga, o'quvchiga ham tushunarli bo'lishi kerak ekanligini ta'kidlaydi.

Ingliz tarjimashunosi Peter Newmark[5.6] o'z tadqiqot ishlarida "semantik" va "kommunikativ" tarjima turlarini ajratib ko'rsatgan. Semantik tarjimada asl matnning ma'nosiga yaqinroq bo'lishga harakat qilinsa, kommunikativ tarjimada esa maqsad tilidagi o'quvchi uchun eng tushunarli bo'lgan tarjimaga e'tibor qaratiladi. Nemis halqi yozuvchisi, tanqidchi va tarjimashunos Walter Benjamin[2.3] o'zining "Tarjimonning vazifasi" maqolasida tarjima jarayonini ijodkorlik sifatida ta'riflaydi va asl matnga nisbatan tarjima "yaqinlashish" emas, balki "yangi yaratilish" ekanligini ta'kidlaydi. Rus tilshunos olim va tarjimon Roman Jakobson tarjima turlari haqida fikr yuritadi. Uning fikricha, "lingvistik" tarjima grammatik va leksik tuzilishga asoslangan tarjima bo'lib, "semantik" tarjima esa matnning ma'nosini saqlab qolishga qaratilgan tarjima hisoblanishini ta'kidlab o'tgan. Nemis halqi ilohiyotshunosi, tilshunos va faylasufi

Schleiermacher 19-asrda tarjima nazariyasiga o'ziga xos hissa qo'shgan. U tarjimonning asosiy vazifasi asl matnga "yaqinlashish" deb hisoblaydi va " tiliga yaqin manba " va " tiliga yaqin maqsad " tarjima turlaridan birini tanlashni taklif qiladi.

Yana bir belgiyalik adabiyotshunos, tarjima nazariyasi bo'yicha mutaxassis André Lefevre[3.2] tarjima jarayonining ijtimoiy va siyosiy kontekstga bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tarjima ijtimoiy va siyosiy kuchlar tomonidan ta'sirlanib, tarjimonlar o'zlarining ijtimoiy rolini o'ynashi haqida fikrlar keltirib o'tgan.

O'zbek tilshunosligida ham ko'plab tarjimashunos olimlar jahon adabiyotiga o'z hissalarini qo'shganlar. Bularga misol qilib, o'zbek adabiyoti va tilining buyuk vakili Hazrat Alisher Navoiyni misol qilib keltirishimiz mumkin, u ko'plab turkiy tillardan o'zbek tiliga asarlarni tarjima qilgan. Bunga yaqqol misol qilib, Xamsa asarini keltirishimiz mumkin. Mazkur asar Navoiyning o'zi tomonidan yaratilgan beshta dostonidan iborat to'plam hisoblanib, lekin u "Xamsa"ni turkiy tiliga tarjima qilishda Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa"sini asos qilib olgan. Bu Navoiyning o'zbek adabiyotiga qo'shgan eng muhim hissalaridan biridir deyish mumkin. A.Navoiy juda ko'p asarlarni tarjima qilgan, ulardan biri "Layli va Majnun" asari bo'lib, Navoiy asarni fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Navoiyning tarjimasi o'zbek adabiyotida o'z o'rnini ega.

Bundan tashqari, Navoiy yana bir qancha kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilgan, masalan: Miftah ul-Fuzala, asar arab tilida yozilgan bo'lib, Navoiy uni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Asarda she'riyat san'ati haqida ma'lumot berilgan. Dastlab, "Risolai Muqaddasi asari arab tilida yozilgan bo'lib, keyinchalik Navoiy uni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asar diniy mavzuga bag'ishlangan bo'lib, unda Navoiyning diniy qarashlarini aks ettirilgan.

O'zbek namoyondalaridan yana biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. U ham fors tilidan o'zbek tiliga she'rlarni o'g'irgan, u o'zining "Boburnoma" asarini ham o'zbek tilida yozgan.

O'zbek adabiyoti va tarjimasining taniqli vakili Mirtemir (Mirtemir Hamid Mirzo) ko'plab rus, ukrain, ozarbayjon, turk va boshqa tillardan o'zbek tiliga adabiy asarlar tarjima qilgan. Badiiy asarlar tarjimasida O'tkir Hoshimovning ham hissasi beqiyos bo'lib, u rus tilidan o'zbek tiliga she'rlar tarjima qilgan, o'zi ham she'riyat bilan shug'ullangan.

Rus, turk va boshqa tillardan o'zbek tiliga ko'plab asarlar tarjima qilgan Usmon Nosir she'riyat va nasr bilan shug'ullangan.

Mustaqillik davri boshlangach, ko'plab yana tarjimashunos olimlar o'zlarining yirik asarlarini taqdim qilishni boshlashdi, ular orasida Farhod To'ychiyevning o'rni beqiyosdir. U ko'plab xorijiy tillardan o'zbek tiliga adabiy asarlar tarjima qilgan.

Mustaqillik davri boshlangach, yana bir taniqli adabiyotshunos yozuvchi Tohir Malik badiiy asarlarni rus tilidan o'zbek tiliga o'g'irgan, shuningdek, u ham she'riyat bilan shug'ullangan.

Tarjimashunos olimlarning fikrlaridan foydalanish tarjima jarayonini chuqurroq tushunishga va unda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga manba sifatida yordam beradi. Ularning fikrlari, shuningdek, tarjimonlarga o'zlarining faoliyatini olib borishida, yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi, tarjima jarayonining murakkabligi esa tarjimaning turli xil jihatlarini tushunishga yordam beradi.

Demak, tarjima bu hayotimizning barcha sohalarida muhim rol o'ynaydi, tarjima faqatgina adabiyot va san'at sohalarida emas, balki tibbiyot, texnologiya, huquq, biznes va boshqa ko'plab sohalarida ham muhim rol o'ynaydi. Tarjima orqali biz o'z bilimlarimizni oshiramiz, yangi texnologiyalar haqida ma'lumot olamiz, biznesda muvaffaqiyatga erishish uchun xorijiy sheriklar bilan ishlash imkoniyatlari yaratiladi, halqlar orasidagi do'stlik rishtalari yana ham mustahkamlashadi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima - bu xalqlar o'rtasidagi ko'prik bo'lib, u turli madaniyatlar va tillar o'rtasida tushunish va hamjihatlikni yaratishga yordam beradi. Shu sababli ham biz ham milliy-madaniy asarlarimizdan parchalar olib, ularning ingliz tiliga o'girilgan muqobillarini lingvokulturologik tahlilini qilib, buning barobarida asliy matn tarjimalariga e'tibor berib, kerak bo'lsa ham biz ham o'zimizning muqobillar tarjimalarimizni ham berib ketamiz.

O'zbek tilida berilgan asliy matn: *-Ota qadrdonlari bilan tanishdirg'aningiz uchun rahmat, amak,-dedi va Akram hoji bilan Mirzakarim akaga tavozu'landi. -Otam sizlardek yaqin do'stlariga salom aytishni menga omonat topshirgan edilar*[6.1]

Ingliz tiliga o'girilgan matn: *"Thank you for introducing me to my father's closest friend, taksir he said, showing his deference toward Mirza Karim and Akram Hajii."My father also entrusted me with paying his compliments to his dearest friend*[4.5].

O'zbek halqi madaniyatida "amaki" leksemasi faqat yaqin qarindoshlikni emas, balki hurmat va muloyimlikni ham ifodalaydi. Matnning ingliz tilidagi tarjimasida esa "taqsir" leksemasi ishlatilgan. To'g'ri "taqsir" leksemasi ham o'zbek tilida ishlatiladi, lekin u "amaki" so'zining ma'nosini va hurmat darajasini to'liq aks ettira olmaydi. Tarjimon taksir leksemasiga "respected uncle" yoki "honored uncle" kabi iborani ham qo'llashi ishlatish mumkin edi. "Ota" leksemasini esa "father" deb tarjima qilingan bo'lib, bu usul to'g'ridan-to'g'ri tarjima turiga kirib, muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

O'zbek madaniyatida "qadrdon yoki yaqin do'stlari" iboralari ingliz tilida berilgan "closest friend" iborasidan ko'ra kuchliroq ma'noni anglatadi. Ushbu leksemalar faqatgina yaqinlikni emas, balki hurmat va e'tiborni ham ifodalaydi. Tarjimada matnda "closest friend" va "dearest friend" iboralari ishlatilgan. Asliy matnda berilgan "qadrdon" leksemasini "cherished friend" yoki "dear and respected friend" deb tarjima qilish mumkin edi. shuni ta'kidlab o'tish kerakki, "yaqin do'stlari" iborasining tarjimasini "dearest friend" deb to'g'ri tarjima qilingan.

O'zbek madaniyatida "amonat" leksemasi juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu so'z ishonch, mas'uliyat va hurmatni ifodalaydi. Tarjimada "entrusted me with" jumlasini qo'llanilgan bo'lsa-da, "amonat" so'zining madaniy ma'nosi to'liq aks etmagan. Bizningcha, asliy matn tarjimasida "placed his trust in me" yoki "charged me with" kabi iboralar ishlatish mumkin edi.

Asliy matnning tarjimadagi kamchiliklari haqida gap ketganda, asliy matnda ishlatilgan "amaki" va "qadrdon" leksemalarining to'liq ma'nosi va ohangi ingliz tilida yetarlicha aks etmagan deb hisoblash mumkin. Yana "amonat" so'zining madaniy ma'nosi ham to'liq aks etmagan deb hisoblaymiz.

Tahlillardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, tarjima matnida o'zbek tili va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim. Tarjimon o'zbek madaniyatidagi qarindoshlik munosabatlarini va hurmat va muloyimlikni ifodalash usulini tushunishi va bu xususiyatlarni ingliz tiliga to'g'ri tarjima qilishi kerak edi deb huloosa qilish mumkin.

O'zbek tilida berilgan asliy matn: *Taassufki, eslay olmayman,-dedi,- Amakingiz sizni saroylatga ham olib tushar edilar. Qutidor tag'in nimadir aytmoqchi bo'lg'am edi, Akrom hoji unga yo'l bermadi*[6.2]

Ingliz tiliga o'girilgan matn: *"I regret not being able to recall your visits, "he said. Qutidor wanted to brush away his embarrassment, but Akram Hajji cut him off*[4.5].

Asliy matnda keltirilgan "Taassufki" leksemasi o'zbek tilida hijolatchilikni aks ettiruvchi leksema hisoblanib, aytish joizki, o'zbek halqi madaniyatida insonlarni hijolat bo'lish tuyg'usiga alohida e'tibor qaratiladi va asliy matnda berilgan "taassufki" kirish so'zi hissiyotni yahshi ifodalaydi. Matnda berilgan "eslay olmayman" iborasi o'zbek tilda oddiygina qo'llangan

ko'rinsada, hurmat ohangida aytilgan. Chunki, o'zbek halqi madaniyatida hurmat va tarbiya muhim ahamiyatga ega.

Asliy matnda berilgan "*Amakingiz sizni saroylarga ham olib tushar edilar*" gapida o'zbek halqi nutqida ko'pincha uchraydigan "sen" olmoshining ko'plik shakli *sizni, sizga* sifatida murojaat qilishi bu o'zbek halqi madaniyatida insonlarga nisbatan hurmat munosabatini ifodalash yo'li hisoblanadi.

Asliy matnda berilgan "*Qutidor tag'in nimadir aytmoqchi bo'lg'an edi, Akram hoji unga yo'l bermadi*" ushbu gapda o'zbek tilida ko'p uchraydigan "*edi*"ning ko'plik shakli bo'lg'an edi, aytmoqchi bo'lg'an edi, yo'l bermadi kabi jummalarni eshitish mumkin. Bu kabi o'zbek madaniyatida ohista so'zlash va mulohazali bo'lishga o'hshash hislarni aks ettiradi.

Ingliz tiliga o'girilgan matn tahlilga kelsak, "I regret not being able to recall your visits, he said. Bu gapda asliy matnda berilgan "*taassufki*" leksemasiga mos keladigan "*I regret*" iborasi qo'llanilgan. Ushbu ibora ingliz halqi madaniyatida ham afsuslanish ma'nosida qo'llaniladi.

Qutidor wanted to brush away his embarrassment, but Akram Hajji cut him off gapiga kelsak, o'zbek tilidagi "Qutidor tag'in nimadir aytmoqchi bo'lg'an edi, Akram hoji unga yo'l bermadi" gapiga mos ravishda tarjima qilingan.

Matnning tarjimasidagi kamchiliklarhi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, ingliz tiliga o'girilgan tarjimada asliy matndagi "*siz*" kishilik olmoshining ko'plik shakli va edi yordamchi fe'lining ko'plik shakli to'g'ri o'girmaganligini ko'rishimiz mumkin. Bizningcha, ingliz madaniyati tilida *sen* kishilik olmoshining ko'plik shakli you ko'pincha oddiy munosabatda ishlatiladi, u huddi o'zbek tilidagidek hurmat yoki qadrlash munosabatini ifodalamaydi. Shuningdek, ingliz tilida "*edi/ was* ning ko'plik shakli *were* huddi o'zbek tilidagi ko'plik ohista so'zlash va mulohazali bo'lishga o'hshash hislarini aks ettirmaydi.

Keyingi asliy matnni ham tahlilini qilib chiqsak: *Otasining valine'mati bo'lg'an bir bekning zulmini iqrar etish haqiqatan ham taajjubka loyiq edi. Azizbekning Turkiston honligining eng zolim va mustabid sanalg'an beklarning biri va uning o'z qaramog'ida bo'lg'an Toshqand aholisiga qilg'an zulmlari Farg'onaga doston, ammo Akram hojining bu savoli Azizbekning eng yaqini bo'lg'an bir kishining o'g'lini sinab ko'rishlik uchun edi*[6.1].

Ingliz tiliga o'girilgan matn: *All of Fergana knew of Azizbek's reputation as one of the most despotic and coldhearted leaders in all of Turkistan, a ruler who governed the population of Tashkent with a heavy handed and chillingly brutal authority. However, the underlying purpose of Akram Hajiis line of questioning was to determine the loyalties of his dearest friend's son*[4.3].

Asliy matnda berilgan *valine'mat* leksemasi qondoshlik va hurmatni bir biriga birlashtirgan desa bo'ladi. Chunki, o'zbek halqi madaniyatida "*vali*" - homiy, himoyachi va "*ne'mat*" - yaxshilik, baraka ma'nolarini anglatadi. Hullas, *valine'mat* leksemasi ota-onaning mehnati, qayg'usi va hurmatini o'zida mujjasamlaydi. *Yaqin* leksemasi esa yaqinlik va qarindoshlik ma'nosiga yaqin ma'noda qo'llangan. Do'stning o'g'li iborasi oilaviy munosabatlarni va oilaviy qadriyatlarning muhimligini ko'rsatadi.

Matnning Ingliz tilidagi tarjimasida *dearest friend* iborasi "*yaqin do'st*" ma'nosini bildirsada, lekin oilaviy munosabatlarni bildirmaydi. *Loyalties* leksemasi "*sadoqat*" ma'nosini bildirib, qarindoshlikdan ko'ra ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarga ta'sir qiladi. *Son* leksemasi "*o'g'il*" ma'nosini bildirib qon-qarindoshlikning asosiy arxisemalaridan biri bo'lsada, lekin matnda uning oilaviy qadriyatlarning muhimligi ta'kidlanmagan.

Shuni ta'kidlash joizki, asliy matnda *qarindoshlik* konsepti ko'proq ta'kidlangan bo'lsa, ingliz tilidagi tarjima matnida esa do'stlik va sadoqat konseptlari ustun turadi. Bu o'zbek madaniyatida qarindoshlik va oila munosabatlariga yuqori qadr berilishi, ingliz madaniyatida esa shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarga ko'proq ahamiyat berilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin seb o'ylaymiz.

O'zbek tilida *valine'mat*, *yaqin*, *do'st* kabi leksemalar qarindoshlikni bildiruvchi ma'no rangini o'zida jamlaydi. Ingliz tilida esa "*dearest friend*", "*son*", "*loyalties*" kabi so'zlar qarindoshlikdan ko'ra ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarga ta'sir qilganligini matn ma'nosidan tushunishimiz mumkin.

Berilgan matn *qon-qarindoshlik* konseptining o'zbek va ingliz tillari madaniyatlarida turlicha ifodalanishini ko'rsatib turadi. O'zbek tilida qarindoshlik ko'proq ta'kidlangan bo'lib, mazkur konsept oila qadriyatlariga yuqori qadr beradi. Ingliz tilida esa shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarga ko'proq ahamiyat beriladi, bu uning til xususiyatlari va madaniy qadriyatlariga bog'liqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бар-Хиллел И. Основания теории множеств. Москва, «Мир», 1966.- 557 с. 6 ..
2. Walter Benjamin, "The Task of the Translator" first printed as introduction to a Baudelaire translation, 1923
3. Lefevere, André. 1992. Translation/History/Culture: a sourcebook. London: Routledge.
4. Mark Edward Reese. Bygone days. Muloqot Cultural Engagement Program, Nashville, TN, 2020. pp. 510. Notes. Bibliog.
5. Peter Newmark. Approaches to translation. London. 31. Page 32. 6 .
6. <https://www.ziyouz.com>